

PAPER

TA'LIM JARAYONIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Maxamatova Sharofat Qudratilla qizi ^{1,*}

¹ NAVDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-kurs magistranti

* maxamatova@gmail.com

Abstract

Maqolada zamonaviy ta'limgizda hamkorlik pedagogikasining tutgan o'rni, uning samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan metodlar va amaliy mexanizmlar keng yoritilgan. Shuningdek, ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar asosida hamkorlikka yo'naltirilgan darslar modeli tahlil qilingan.

Key words: hamkorlik pedagogikasi, interfaol metodlar, guruhli ish, refleksiya, o'quvchi markazlashgan yondashuv, ta'limgiz sifati, o'quvchi va o'qituvchi hamkorlik jarayoni, xorijiy va mahalliy tajribalar.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilanganidek, ta'limgiz sifati va samaradorligini oshirish bugungi kunning eng dolzorb masalalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, o'quvchi faoliyatini markazga qo'yadigan, o'zaro muloqot va hamkorlikka asoslangan pedagogik uslublarni ta'limgiz jarayoniga keng joriy etish zaruratga aylandi. Hamkorlik pedagogikasi – bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaida hamda o'quvchilarning o'zaro teng huquqli muloqoti va faol hamkorligiga asoslangan ta'limgiz shaklidir. U ta'limgiz jarayonida bilim olishni bir tomonlama emas, balki o'zaro almashuvga asoslangan ikki tomonlama jarayon sifatida qaraydi.

Hamkorlik pedagogikasining ildizlari J. Dyui, L.S. Vygotskiy, D. Jonson va R. Jonsonlar, R. Slavin kabi pedagog va psixologlarning ilmiy qarashlariga borib taqaladi. Xususan, Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasasi" nazariyasi o'quvchilar o'rtaida hamkorlik orqali bilim va ko'nikmalar shakllanishi mumkinligini ilmiy asoslab berdi.[1] D. Jonson va R. Jonson (1994) tomonidan ishlab chiqilgan "Cooperative Learning" (Hamkorlikda o'qitish) modeli asosida guruhli ishlash, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish imkoniyati vujudga keladi. Hamkorlikka asoslangan ta'limgiz samarali bo'lishi quyidagi asosiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi:[2]

*Guruhli ishlari tizimi: O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish orqali muammoni birligida hal qilish, har bir a'zoning fikrini inobatga olish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlanadi. Misollar:

"Think–Pair–Share" (O'ylang–Juftlikda baham ko'ring)

"Jigsaw" (Bo'lak usuli)

"Round Robin" (Navbat bilan javob berish)

* Rollar taqsimoti

Har bir guruh a'zosi o'zining vazifasiga ega: masalan, rahbar, yozuvchi, taqdimotchi, kuzatuvchi. Bu usul o'quvchilarda mas'uliyat, yetakchilik va hamkorlik madaniyatini shakllantiradi.[3]

*Refleksiya jarayoni

Har bir dars yakunida o'quvchilar o'z faoliyatini baholaydi, nima o'rganganini va nimani yaxshilash kerakligini aniqlaydi. Bu esa o'z-o'zini anglash, tahlil qilish va o'zgarishga ochiqlikni kuchaytiradi.

*Raqamlı texnologiyalardan foydalanish

Zamonaviy raqamlı platformalar – Padlet, Google Jamboard, Mentimeter, Kahoot kabi vositalar orqali masofaviy hamkorlik va interaktivlikni ta'minlash mumkin.

*Yangi metodik yondashuvlar

Bugungi kunda hamkorlik pedagogikasiga quyidagi yangi metodik yondashuvlar integratsiya qilinmoqda:

STEAM integratsiyasi – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlari integratsiyasi orqali loyihalarga asoslangan hamkorlikda ta'limgiz.

Problem-based learning (PBL) – muammoli vaziyatlar asosida o'quvchilarning mustaqil va guruhda ishlash faoliyatini tashkil etish.

Flipped classroom – uyda nazariyani o'rganib, darsda esa

guruhli amaliy muhokamalarni tashkil etish.

Service learning – jamiyat foydasi uchun xizmat ko'rsatish orqali real hayotiy holatlarda hamkorlikda o'rGANISH.[4]

"Hamkorlik pedagogikasi" qo'llanish darajasiga ko'ra: umumpedagogik, falsafiy asoslariga ko'ra: insoparvar, bolaga yondashuvga ko'ra: shaxsiy-insonparvar, sub'ektsub'ektni(hamkorlik) va metodlarni qo'llanilishiga ko'ra: muammoli-iszlanuvchan, ijodiy, dialogli, o'yinli ta'lif texnologiyasi hisoblanadi. Hamkorlik ta'lif texnologiyasi tamoyillari sifatida: - juftlik va kichik guruh a'zolarining o'zaro birligi; - juftlik va kichik guruhda har bir a'zoning shaxsiy va guruh muvaffaqiyati uchun javobgarligi; - kichik guruhda hamkorlikka asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish; - guruh va jamoa ishining umumiy baholanishini ko'rsatishimiz mumkin. Hamkorlik ta'lif texnologiyasining belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: - talaba shaxsi, individualligiga e'tibor qaratish; - talabalarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish; - pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobjiy munosabatning yuzaga kelishini ta'minlash; - talabalarda madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish; - hamkorlik va o'zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish. Hamkorlik ta'lif texnologiyasini qo'llashda talabalar jamoada; kichik guruhda; juftlikda ta'lif oladilar: Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lif-tarbiya jarayonini takomillashtirishning quyidagi mezonlari va ko'rsatkichlariga e'tibor qaratdik: - ta'lif-tarbiya jarayonidagi o'zaro birqalikdagi faoliyatning dialogik tavsifga (dialogik munosabatlar jarayonidagi subyektlarning kommunikativ ustanonvkalar) egaligi; - ta'lif-tarbiya jarayonida subyektlarda qadriyatga yo'naltirilgan munosabatning (o'zaro hurmat, o'zaro ishonch, o'zaro bir-birini tushunish, mas'uliyatni ongli his etishda subyektlarning o'zaro birqalikdagi faoliyatga qadriyatga yo'nalganligi) umumiyligi; - subyektlarning o'zaro birqalikdagi harakatining muvofiqligi (o'zaro birqalikda maqsadni belgilay olish ko'nikmasi, unga erishish usullarini rejalashtirish, - belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish, maqsadga erishishni hamkorlikda nazorat qilish, olingen natijalar asosida yangi maqsad va vazifalarni aniqlashtirish); - faoliyatli-guruhiy mezonlar – o'zaro birqalikdagi harakatning intensivligi, jamoadagi emotsional-psixologik muhit.[5] Zamonaviy sharoitda hamkorlik pedagogikasining ta'lif-tarbiyaga doir yetakchi g'oyalari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: o'zaro harakat, ijodiy hamkorlik; muvaffaqiyatga erishish; individuallik; o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini takomillashtirish. Hamkorlik pedagogikasi asosida talaba-o'quvchilarda muloqotga kirishuvchanlik, ishchanlik, yetakchilik, keng ko'laml, aniq izchillikka ega bo'lman materiallarni tartibga solish va tahsil qilish, axborotlar yetarli bo'lman sharoitlarda ularni to'ldirish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati ham vujudga keladi.

Hamkorlik pedagogikasi o'quvchilarning faolligi, ijtimoiy ko'nikmalari va mustaqil fikrlash salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv orqali nafaqat ta'lif samaradorligini, balki ijtimoiy ong va mas'uliyat hissini ham rivojlantirish mumkin. Uni ta'lif jarayoniga tizimli integratsiya qilish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, darslarni rejalashtirishda metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlash zarur.

Adabiyotlar

- Johnson, D. W., Johnson, R. T. (1994). Cooperative Learning in the Classroom. Association for Supervision and Curriculum Development.
- Slavin, R. E. (1995). Cooperative learning: Theory, research, and practice. Allyn Bacon. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
- Samarov N. va boshqalar. (2021). Zamonaviy pedagogik

texnologiyalar. Toshkent: "Fan va texnologiya".

- Maxmudova Z. (2023). "Hamkorlikda o'qitishning zamonaviy yondashuvlari" // Pedagogik mahorat. №4.
- PEDAGOGIK FAOLIYATDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASI NING O'RNI VA AHAMIYATI 1Axatova Durdonna Aktamovna 2Axatova Xilola Aktamovna PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023